

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi
“Qishloq xo‘jaligi va atrof-muhitni muhofaza qilish fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Plazma texnologiyalari asosida g‘o‘zaning biotik va abiotik omillarga bardoshlilikini oshirish orqali paxta hosildorligini oshirish va agrotexnologiyasini ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - tadqiqotlar asosida tuproqning agrofizik va agrokimyoviy xususiyatlarini hamda g‘o‘zaning asosiy fazalari dinamikasida tuproq ozuqa rejimi, o‘simliklar fiziologik va biokimyoviy jarayonlari, o‘shishi, rivojlanishi va hosildorligi aniqlanib, ularning o‘zgarishini tahlil qilish, natijada xorijiy va mahalliy g‘o‘za navlarini qo‘shqator va yakkaqator yetishtirishda g‘o‘zani o‘g‘itlash bilan bog‘liq agrotexnologik ishlanmani iqtisodiy samaradorligini aniqlash asosida innovatsion agrotexnologiya yaratiladi, tavsiyalar ishlab chiqiladi; - global iqlim o‘zgarishida respublikamiz tuproq-iqlim sharoiti va xorijiy va mahalliy g‘o‘za navlarining morfologik xususiyatlariga bog‘liq holda uning o‘shishi, rivojlanishi va hosildorligiga ijobiy ta‘sir etuvchi maqbul mineral o‘g‘it turlari, qo‘llash me‘yori, muddati hamda nisbatining takomillashgan agrotexnologiyasi ilmiy-amaliy asoslanadi; - sug‘oriladigan tuproqlar mintaqasida xorijiy va mahalliy g‘o‘za navlari parvarishida takomillashtirilgan innovatsion agrotexnologiya qo‘llashni mineral o‘g‘itlarning maqbul turlari, qo‘llash me‘yorlarini o‘simlikni o‘shishi, rivojlanishi, quruq massasi, o‘simlik tomonidan azot, fosfor, kaliyni o‘zlashtirilishiga hamda paxta hosili, tola va chigitning texnologik xususiyatlariga ta‘siri bo‘yicha ilmiy ma‘lumotlar olinadi va klasterlarga, fermer xo‘jaliklariga g‘o‘za navlarini oziqlantirishda mineral o‘g‘it turlari, maqbul me‘yor va muddat va nisbatlarda qo‘llash bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar beriladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizim tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida natijalar Qishloq xo‘jaligi vazirligining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma‘lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar natijalar Qishloq xo‘jaligi vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.